



ARTISHOK (S.SCOLYMUS L.) O'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI.

Ahmedova Iroda Asliddin qizi

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13789844>

Annotatsiya: Maqolada Artishok o'simligining kelib chiqishi, tarqalishi, anatomiyasi, morfologiyasi, ko'payish usullari, dorivorlik xususiyati to'g'risida fikr yuritiladi.


Abstract: The article discusses the origin, distribution, anatomy, morphology, reproduction methods, and medicinal properties of the artichoke plant.

Kalit so'zlar: acteracea oilasi, cynara-scolymus, cynara turkumi, dicotyledones sinfi, angiospermae bo'limi, flora.

Key words: family acteracea, cynara-scolymus, genus cynara, class dicotyledones, section angiospermae, flora.

Artishok (arabchadan yer tikan deb tarjima qilinadi)- murakkabgullilar oilasiga mansub ko'p yillik sabzavod o'simligidir. A.A. Tavernete fikricha, artishok bundan 2000 yil muqaddam sabzavot o'simliklari orasida keng tarqalgan. Italiyada (Rim imperiyasi) 5000 yildan buyon artishokni madaniy o'simlik sifatida ekib, oziq-ovqat maxsuloti sifatida yetishtirib kelinmoqda. Artishok haqidagi dastlabki ma'lumot eramizdan avvalgi 100-yillarga to'g'ri keladi. Artishok (S.scolymus L.) madaniy holda u dastlab Sisiliya, keyinchalik Gretsiya va Italiyada keng tarqala boshlagan. Eramizdan 77 yil avval rimlik olim Pliniy artishokni yerdagi "bahaybat maxluq" deb atagan. Yil davomida badavlat rimliklar artishokning bargini ko'proq asalga aralashtirib, sirkaga solib istimol qilishgan. Eramizdan 800 yil avval shimoliy Afrikalik murlar Grenada va Ispaniya yaqinida artishokni yetishtira boshlagan. Boshqa qabilalar - arablar, sarasinlar artishok bilan Sisiliyada tanishishgan va istimol qila boshlagan. Artishok arabcha «Al-karshuv» so'zidan olingan bo'lib, "Yertikan" degan ma'noni bildiradi.

Artishokni Kaliforniyaga 1600-yilda ispaniyaliklar olib kelgan bo'lsada, sabzavod ekinimiz aholi o'rtasida oziq-ovqat maxsuloti sifatida keng tarqala olmagan. 1922-yilda Andru Molera Kaliforniyadagi Salina vodiysida, San-Fransiskoning janubiy tomonida fermerlarga sabzavod ekinini yetishtirish uchun yer ajratib bergan. O'simlikning aholi o'rtasida oziq-ovqat va dorivor mahsuloti sifatida keng tarqalishiga sababchi bo'lgan. Kaliforniyada






o'stiriladigan artishok plantasiyalarining o'rtasida joylashgan Kastrovil shahrida artishokni qayta ishlash maqsadida zavod ham qurishgan.

Artishok Rossiya 1715-yilda Gollandiyadan olib kelib ekila boshlangan. Lekin u Rossiya iqlimiga moslashmaganligi tufayli keng tarqalmagan. XX asr boshlarida artishok Qora dengiz hududlarida asosan manzarali o'simlik sifatida oz miqdorda ekilgan. Artishok (*S.scolymus* L.) haqida amerikalik faylasuf Ralf Emersan shunday degan, uning so'zlariga ko'ra "Har qanday begona o't qadr qimmatga ega bo'lgan o'simlikdir" deb tarif berib, sabzavod ekinining qanchalik foydali ekanligini haqida o'z fikrlarini bayon etib o'tgan. Bu o'simlikning asil tug'ilgan joyi Kaneyeriklar orollari hisoblanadi. Klassifikatsiyasi Tur-species-cynara; *scolymus*; Turkum-Genus-cynara Oila-Family-Asteraceae Sinf-clases-Dicoltyledones (ikki urug' pallalilar). Bo'lim-Divisio-Angiospermae (yopiq urug'lilar) turkumiga mansub o'simlik hisoblanadi. M.A.Ragimovning ta'kidlashicha, artishok Ozarbayjonga birinchi marta manzarali o'simlik sifatida 1914-yilda keltirilgan, 1943-yildan boshlab esa, sabzavot o'simligi sifatida madaniylashtirilgan. Fransiya, Italiya, Kanada, Ispaniya, Argentina, AQSh kabi mamlakatlarda ko'plab yetishtiriladi. O'rta dengiz mamlakatlarida 10 dan ortiq turi o'sadi. Rossiyaning janubiy, Moldaviya, Ukrainada tikanli Artishok (*S.scolymus* L.) turi ko'proq yetishtiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Yetishtirish texnologiyasi. Artishok juda sershox bo'lib, bo'yi 2 m gacha boradi. Gullari ko'k-binafsha rangda, yirik to'pgul hosil qiladi (bir to'pguli og'irligi 100-200 g). Seret gulbandi va savatcha to'pguli ovqatga ishlatiladi. Artishokda qand, oqsil (2,5-3%), uglevod (7-15%), S (0,4 mg%), V, V2 vitaminlari, karotin, urug'ida 30% gacha moy bor. Xom va konservalangan, qaynatilgan Artishok souslar bilan iste'mol etiladi, salatlar tayyorlanadi. Uglevodlari tarkibida diabet kasalliklari uchun foydali bo'lgan inulin bor. Janubiy zonalarda 3-4 yillik, sovuq kuchli zonalarda bir yillik ekin, 100×80 cm sxemada ekiladi. Hosildorligi 50-250 s/ga (15-50 ming to'pgul). Artishok odatda ko'p yillik ekin tarzida ekilgandan so'ng ikkinchi yili gullaydi. Artishokning o'suv davri 120-130 kunli bo'lib, ko'p yillik o'simlik xisoblanadi, bo'yi 120-150 cm. Barglarining rozetkasi vertikal, diametiri 80-100 cm. Bargi yirik, yashil, tikanli, 50 cm uzunlikda, 20 cm kenglikda. Birinchi yili 5-7 ta to'pgul, ikkinchi yilida 12-15 ta to'pgul xosil qiladi. Artishok urug'lari +15 C da una boshlaydi. +20 +25 C xaroratga yetganda esa o'sadi va rivojlana boshlaydi. Katta yoshdagi o'simliklarni o'sib rivojlanishi uchun +18 +25 C xarorat zarur bo'ladi. Shuningdek, qisqa muddatli -0 -1 C sovuqqa bardosh beradi, lekin -2 -3 C





xaroratda o'simliklar butunlay nobud bo'lishiga olib keladi. Bu o'simlikni urug'laridan ko'paytirayotganda, sotib olingan urug'lar 6,8 soat davomida namlanishi lozim. Ekish uchun 15 cm uzunlikdagi urug'larni ajratib olish yaxshi samara beradi. Ekkandan so'ng zaharli hasharotlardan himoya qilish lozim bo'ladi. Artishok hozirgi vaqtda mo'tadil subtropik iqlimiga ega bo'lgan Kavkazorti davlatlari, Qora dengiz atrofida ko'p yillik o'simlik sifatida o'stirilib kelinmoqda. Artishok (*S.scolymus* L.) haqida Fernandez J.A., Migliaro D., Esteban A. va boshqalar (2011) ma'lumotiga ko'ra Ispaniyada 10000 ga maydonda artishok yetishtiriladi va yalpi hosil 200 000 tonnani tashkil etadi. Ispaniyaning Mursia provinsiyasida artishok an'anaviy ekin hisoblanadi va bu yerda 88 000 tonna artishok yetishtiriladi. Bu yerda eng keng tarqalgan nav Blanca de Tudela hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatalarida eng ko'p artishok yetishtiriladigan mintaqa Kaliforniya shtati hisoblanib. Bu yerda har yili artishok festivali tashkil etiladi. Artishokni parvarish qilishga ilmiy asosda yondashish har xil tuproq-iqlim sharoitida begona o'tlarga kasalliklarga qarshi kurashda, kerakli ko'chat qalinligiga ega bo'lish hamda o'simliklarni suv va ozuqa elementlari bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shu maqsadda artishokni yetishtirishda quyidagi agrotexnik tadbirlarni qo'llash tavsiya etiladi; qator oralarini kultivasiya qilish, ekinni oziqlantirish, sug'orish, begona o'tlarga, zararkunandalarga, kasalliklarga qarshi kurash choralarini ko'rish zarurdir.

Artishok sabzavotdan tashqari asal beruvchi, manzarali, dorivor va xashaki ekin ham hisoblanadi. Vegetativ yo'l bilan va urug'i orqali ko'patiriladigan, O'rta-Yer dengizi mamlakatlari va dunyoning boshqa joylarida yetishtirilayotgan artishok navlarini to'liq aniqlash, tavsiflash ancha qiyin masala bo'lib, bitta nav bir necha nom bilan atalishi bilan boshqa sabzavodlardan alohida ajralib turadi. Masalan, Italiyada yetishtirilgan artishokning Catanese navi 14 ta sinonimga ega bo'lib, artishok navlarining nomlari yetishtirilayotgan navlar soniga nisbatan anchagina ko'pdir. Bundan tashqari Italiya, Ispaniya, Fransiyada artishok navlari juda yaxshi o'rganilgan bo'lsada, boshqa O'rta-Yer dengizi mamlakatlarida deyarli bu sabzavotimiz o'rganilmagan. Shunga qaramasdan artishokning yetishtirilayotgan navlari soni 80-100 tadan oshmasligi manbalarda keltirilgandir. Italiyaning Bari shahrida 37 ta artishok navlarini 20 ta belgilari bo'yicha alohida alohida izlanishlar olib borilib ilmiy asoslangan tajribalar olib borilgan. Shulardan 11-12 tasigina bozor talabiga javob bera olishi aniklangan. Artishokning madaniy navlari kam sonli bo'lsada, ular ko'pgina belgilari bo'yicha bir-biridan keskin farq qilishi





aniqlangan. Bari shahridagi artishok jahon kolleksiyasidan 78 ta artishok navlarini 27 ta belgisi bo'yicha har tomonlama o'rganilgan.

Dorivorlik xususiyatlari. Artishok (*S.scolymus* L.) ning sermag'iz gul o'rni iste'mol qilinadi. U yangiligicha iste'mol qilinganda yong'oq ta'mini beradi. Undan salatlar, souslar, pyurelar tayyorlashda foydalaniladi va konservalangan holda ham iste'mol qilinadi. Artishok tarkibida 3% gacha oqsil, 0,1% moy, 10 -15% uglevodlar, 11-110 mg askorbin kislotalari, V guruhiga kiruvchi vitaminlar, sinarin, inulin kabi moddalar mavjud.

U ateroskleroz, jigar va buyrak kasalliklari bilan og'rikan kishilarga tavsiya etiladi. Artishok qonda xolesterin miqdorini kamaytirish xususiyatiga ega. Uning siydik haydovchi xususiyati ham mavjud.

Jamiyatimizda va jahonda dorivor o'simliklarga juda katta e'tibor qaratilmoqda, chunonchi ularni ko'paytirish, tarqalgan joylarini aniqlash hamda foydali xususiyatlarini aniqlash, ularni tabiatga tadbiiq qilish chora tadbirlari bo'yicha qarorlari tasdiqlangan. Shuningdek, O'rmon xo'jaligida davlat qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, sog'liqni saqlash vazirligi va fanlar akademiyasining Shifobaxsh dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash markazi negizida O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi huzurida davlat muassasi shaklidagi dorivor o'simliklarini yetishirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi tashkil etish to'g'risida qarori mavjuddir.


Artishok qimmatbaho o'simlik bo'lib, oziq-ovqat va farmasevtika sanoatida hamda chorva mollariga ozuqa sifatida foydalaniladi.

Jigar, qabziyat, qandli diabet, ateroskleroz, psoriaz, ekzema, oshqozon osti bezi kasalliklarini davolashda artishokdan sinariks, xofitol, artichoke kabi preparatlar tayyorlanadi. Artishok tarkibida oqsillar, uglevodlar, vitamin C, karotin, vitamin B1 B2, inulin tarkibida kaliy, rux, selen, mis, marganes, natriy, magniy, fosfor, kalsiy va temir, taninlar, shuningdek, organik kislotalar mavjud.

Eng foydalisi glikozidsinarin, shuningdek, tibbiyotda ishlatiladigan kofein, askorbin va xinin kislotalardir. Artishokning yumshoq (et qismi) o'rta qismi ishlatiladi. Artishok xom, qovurilgan va qaynatilgan holda iste'mol qilinadi.

Xalq tabobatida uning barglari va ildizlari o't yo'llari, ateroskleroz va revmatizmlarda ishlatiladi. Artishok - parxez sabzavot bo'lib, oson o'zlashtiriladi, uning qayta ishlangan mahsulotlari qandli diabetda kraxmal o'rnini bosuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Artishok ilon zahrini kesuvchi, bolalarda stomatitni davolovchi, organizmni tozalovchi vosita va allergik kasalliklarda foydalaniladi.

Xulosa.





Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Artishok o'simligi insonga zararli tomonidan ko'ra foydali tomonlari ko'proq chunki bu o'simlik vitaminlarga boy va bir qancha kasalliklarga qarshi foydali sabzavod ekan. U diabet bilan og'rikan bemorlarga tavsiya etiladi va dorivor o'simlik sifatida arteroskleroz rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi vosita sifatida foydalaniladi. Artishok ekstrakti qonni tozalash xususiyatiga ega hisoblanib, yog'lar va xolesterin miqdorini kamaytirish, jigar va buyraklarni toksinlar ta'siridan yaxshi himoya qilish, metabolizmni yaxshilash hamda tanani turli toksik moddalardan tozalashga yordam bera olish xususiyatiga egadir. Olib borilgan adabiyotlar taxlili va metodologiyasi asosida sabzavod o'simligimizni O'zbekistonning janubida yaxshi o'sib rivojlanishi va uning urug' mahsuldorligi yuqori bo'lishi aniqlandi. Shuningdek, O'zbekiston sharoiti uchun qimmatli introdusent mahsulot bo'lib hisoblanidi.


Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Uslubiy qo'llanma. Amirov Artishok qimmatli ozuqa.
- 2.Ma'ruza matn "Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug'chikigi" AQXAI.
- 3.Egamov X., Abdumalikov U., Zapparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A.Yaratilgan yangi g'o'za tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Sbornik nauchno metodicheskix statyey No1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.
- 4.MiraxmedovF.Sh., AbdumalikovU.Z., AbdumalikovI., TillaboevA. Минеральные удобрения и их ратсиональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интегратсионные протсессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.
- 5.KimsanovI.X, KodirovO.A, RaximovA.D, AbdumalikovU.Z. Изучение морфологических и хозяйственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализатсии, Белгород, 2019. С. 24-27.
6. Amirov B.A.Artishok qimmatli ozuqa o'simlik - Toshkent, fan 1976-17.
7. Namozova Z.B Artishok ko'p tomonlama foydali o'simlik. Ilmiy zakovatimiz senga Ona - vatan: // ilmiy - amaliy anjumani materiali Farg'ona, 2002- B 13 -14
8. Tamashshun S.G Artishok - Cynara L. / Flora SSSR. T.XXVIII - 1 izd AN SSSR.1963 - S- 225 - 226.
9. Normurodov X.N., Nomozova Z.B., Artishokning (cynara) Samarqand viloyati sharoitida ba'zi bir biologik xususiyatlari // O'zb biol. jurnal.- Toshkent 2001 - No 4 -B 41 - 44.





10. Ashurmetov A.A. Metodika izucheniya semennoy produktivnosti rasteniy na primer vidov roda Glycyrrhiza L. // Uvelichenie kormoproizvodstva na nauchnoy osnove. - Tashkent, 1982. -S. 50-51.
11. Amirov B.A. Artishok Qimmatli ozuqa. - Toshkent, Fan, 1976. - 17 b.
12. Lukanets V.N. Taqvim ogorodnika. - Alma-Ata: Qayner. Sarjaylov, 1992. - S.57-59.
13. Medvedov P.F., Smetannikova A.I. Kormoviye rasteniya Evropeyskoy chasti SSSR. Spravochnik. - L.: Kolos, 1981. -S.21-22.
14. Nomozova Z.B. Biologicheskie osobennosti Cynara scolymus L. v usloviyax Samarqandskoy oblasti. Razvitie botanicheskoy nauki v Tsentralnoy Azii i eyo integratsiya v proizvodstvo: Materyali mejdunarodnoy nauchnoy konferentsiya. -Tashkent, 2004. - S. 175-177.
15. Nomozova Z.B. Cynara scolymus L. -stiqbolli o'simlik. Fan yutuqlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari: Ilmiy - amaliy anjuman materiallari. -Samarqand, 2005. - B. 49-50.
16. Nomozova Z.B. Samarqand viloyatida sharoitida Cynara scolymus L. tupgullarining morfologik xususiyatlari. Botanika, ekologiya, zamonaviy mavzular: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Andijon, 2007. - B. 105-107.
17. Normormodov X.N., Nomozova Z.B. Artishokning (Cynara L.) Samarqand viloyati sharoitida bazi bir biologik xususiyatlar // O'zb. biol. jurn. - Tashkent, 2001. -№4 - B.41-44.
18. Ragimov M.A. Artishok // Kolxozno - sovxoe proizvodstvo // - Tadjikistana, 1969. -№4. -S.18-19.
19. Ragimov M.A. Pyaty simozium po novym silosnym rasteniyam. Chast 1. -L.: Nauka, 1970. -S.42.
20. Xaydarov R.S. Qishni menisimaydigan artistshok // Fan va hayot. - Tashkent, 1971.-№6. - S.8-9.
21. Xaydarov R.S. Artishok // Selskoe xozyaystva Uzbekistana. - Tashkent, 1971. -№10.- S.50-51.
22. Xanlarova A.G., Ragimov M.A. Artishok, kak maslichnoe rastenie // AN AzSR. -Baku, 1951. T.7. -№2.- S.69-71.
23. Chikov P.S., Laptev Yu.P. Vitaminnye va lekarstvennye rasteniya. - M.: Kolos, 1976.- S.58-319.
24. Hamdamova E.I., Nomozova Z.B., Qurbonova G. Adirlarda yasov tashkil etishni texnologik usullari. // Dostijeniya biotexnologii i budushchee chelovechestva. -Samarqand, 2001.- S.75.





25. Foury C. Etude de biologie florale de Partichaut (*Cynara scolymus* L.); dastur tanlovi. Ann. Amelior. Planetlar 17, 1967. - p. 357-373.
26. Ramazonov, B. R. (2021). CELSKOHOZYAYSTVENNYE KULTURY I IX PRODUKTIVNOST V NIJNE AMUDARINSKOM REGIONE. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2 (1), 1001-1006.
27. Alimova, X. B., & Ramazonov, B. R. (2021). INTERFAOL TA^IM YORDAMIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2 (1), 937-943.21. Uz.crushingplants.info
28. Қўшоқович, Қ. С., & Сайфидинов, Х. З. (2024). САБЗИ (*DAUCUS CAROTA* L.) ИЛДИЗМЕВАСИНИНГ ФОЙДАЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(1), 99-103.
29. Qo'shoqovich, Q. S., & Ziyedullayevich, S. X. (2024). BAMIYA (*Hibiscus esculentus* l.) SABZAVOT EKININING FOYDALI XUSUSIYATLARI, XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(1), 88-94.

